

NUG'AYLI SUV OMBORINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

Mamarasulov Sobir Raxmonqul o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti

“Gidrotexnika inshootlari va nasos

stansiyalari” kafedrası assistenti

sobirmamarasulov6@gmail.com

ORCID: 0009-0004-6707-5741

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Nug'ayli suv omborining hozirgi vaqtdagi holati, suv omborning joylashishi, iqlimi, loyihasi, to'g'on tarkibidagi gruntning mexanik tarkibi, suv ombor hajmi va suv yuzasi maydoni haqida umumiy ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar. *Suv ombor, grunt, to'g'on, suv havzasi, yer maydoni, iqlimi, mexanik jihozlari, suv o'tkazish qobiliyati, zilzilabardoshliligi.*

Абстрактный. *В статье даны общие сведения о современном состоянии Нугайлинского водохранилища, его местоположении, климате, конструкции, механическом составе грунта в районе плотины, объеме водохранилища и площади водной поверхности.*

Ключевые слова. *Водохранилище, почва, плотина, водный бассейн, площадь суши, климат, механическое оборудование, водопроницаемость, сейсмостойкость.*

Abstract. *This article provides general information about the current state of the Nugayli Reservoir, its location, climate, design, mechanical composition of the soil in the dam, reservoir volume, and water surface area.*

Keywords: *Reservoir, soil, dam, water basin, land area, climate, mechanical equipment, water permeability, earthquake resistance.*

Kirish. Suv ombori — to'g'onlar yordamida suvni yig'ish va saqlash uchun quriladigan sun'iy suv havzasi. Kompleks foydalanishga mo'ljallangan Suv ombori xalq xo'jaligidagi bir qancha tarmoqlar (sug'orish, suv ta'minoti, elektr energiyasi,


kemachilik, baliqchilik, toshqinlarga qarshi kurashish va boshqalar) ehtiyojini qondiradi. Yil davomida daryo oqimlarining o'zgarib turishi va uning hudud bo'ylab notekis taqsimlanganligi Suv ombori barpo etishga zarurat tug'diradi. Suv ombori oqimni fasllar va yillar bo'yicha tartibga soladi, kanal va boshqa suv o'tkazish inshootlari bilan birga hududlar bo'ylab qayta taqsimlashga imkoniyat yaratadi.

Suv ombori katta xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgani sababli 20-asr oxiriga qadar Yevropa, Osiyo, Afrika, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya va Okeaniyada 130 dan ortiq juda yirik suv omborlari barpo etilgan. Tanzaniyadagi OuyenFols (hajmi 250 km³, suv yuzasi maydoni 69000 km²), Kanadadagi Daniel Jonson (tegishli 142, 1940); Rossiyadagi Bratsk (169; 5500) Suv ombori jahondagi eng yirik suv omborlari hisoblanadi. O'rta Osiyo hududida suv omborlari, asosan, ekinzorlarni sug'orish, energetika va suv ta'minotini yaxshilash uchun quriladi. O'rta Osiyo hududida 75 ta Co. mavjud (2004). Ularning yalpi umumiy hajmi qariyb 50 mlrd. m³. Amudaryo va Sirdaryo havzalarida yirik suv omborlari (To'xtag'ul, Qayroqqum, Chordara, Chorvoq, Norak, Tuyamo'yin va boshqalar) qurilgan. Suv omborlari qurilishi natijasida O'zbekistonda 4,3 mln.ga dan ortiq yerda sug'orma dehqonchilik qilish, suv resurslaridan gidroenergetika va baliqchilik maqsadlarida yanada kengroq foydalanish imkoniyatlari yaratildi.

Suv omborning tarixi

1	Suv omborining nomlanishi	“Nug‘ayli”.
2	Suv bilan ta'minlovchi manba	Yakkabog‘daryo daryosi.
3	Suv ombori joylashgan manzil	Qashqadaryo viloyati, Yakkabog‘ tumani.
4	Suv omborning turi	Quyilma.
5	Oqimning boshqariluv	Mavsumiy.
6	Suv omborining maqsadi	Sug'orish uchun.
7	Suv omborini to'ldirish boshlangan va meyoriy dimlangan sath (MDS) ga yetish	To'ldirish boshlanishi – 1972 yil. MDS ga ko'tarilgan vaqti – 1975 yil.

	sanasi	
8	Suv ombori ekspluatatsiyasi kaskadli yoki izoliyatsiyali	Izoliyatsiyali.
9	Suv ombori foydalanishga topshirilgan sana	Doimiy foydalanishga 1975 yil 15 yanvarda qabul qilingan.
10	Qurilish yillari	1970 – 1971 yillarda amalga oshirilgan. 1972 yilda qayta ta'mirlangan
11	Suv ombori qurilish loyihasi	"Uzgirovodxoz" instituti tomonidan 1970 yil tuzilgan.
12	Loyihaning saqlanish joyi	"Uzgirovodxoz" instituti, suv omborlari ekspluatatsiyasi bo'limi va Respublika markaziy arxivida.
13	Inshootlarning tarkibi:	
1	Suv ombori havzasi	
2	Suv keltiruvchi kanal	
3	To'g'on	
4	Suv chiqarish inshooti	
5	Suv chiqaruvchi kanal	
14	Suv bilan qoplangan maydon	- 0,587 km ²
15	Sug'oriladigan maydoni: loyiha bo'yicha suv ombori 1,87 ming gektar sug'oriladigan yerlarni suv bilan ta'minlash ko'zda tutilgan.	
16	Baliq mahsulotlari yetishtirish	Shartnoma asosida foydalaniladi.
17	Rekreatsiya	Foydalanilmaydi.
18	Zilzila bardoshligi	7 ball.
19	Suv ombori gidrotexnik inshootlarining sinfi	Inshootlar IV–sinf.



1-rasm. Suv ombor suv chiqaruvchi inshootining bo'ylama qirqimi

Xulosa. Nug'ayli suv ombori quyilma suv ombori bo'lganligi uchun Yakkabog' daryosida suv yetarli darajada bo'lsa suv tashlab turiladi. Hozirda suv omborda suv miqdori 3-4 mln³ ni tashkil etadi. Suv omborda filtratsiya jarayoni yuqori.



1.2-rasm. Nug'ayli suv omborining umumiy ko'rinishi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Sh.M.Musayev "Nasos va nasos stansiyalar" Jizzax 2020-yil.

2. Bazarov Dilshod Rayimovich, Xidirov San‘atjon Qo‘chqorovich, Norqulov Behzod Eshmirzayevich, Vohidov Oybek Farhodjon o‘g‘li, Artikbekova Fotima Quchkarovna “Nasos stansiyalarini loyihalash va nasos qurilmalarini sinash” Toshkent 2020-yil
3. M.Mamajonov, A.Hakimov, T.Majidov, B.O‘ralov
“Nasos va nasos stansiyalaridan amaliy mashg‘ulotlar”.Andijon 2005- yil
4. M.M.Muxammadiyev, B.U.Urishev. Nasos stansiyalarini loyihalash. O‘quv qo‘llanma. T., TDTU., 1998.
5. Mamarasulov.S.R va boshqalar “Yo‘ldosh(Nasaf) nasos stansiyasini ekspluatatsiya qilishni yaxshilash bo‘yicha takliflar” – 2024 y, 191-194- betlar.
- 6.Mamarasulov.S.R “Qarshi bosh kanali suv olib kelish sohasining hozirgi holati” Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 11-to'plam 2-son sentabr 2024.
8. Mamarasulov.S.R “Qarshi bosh kanali va kanalning 1-nasos stansiyasiga suv olib kelish sohasi hozirgi holati” Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali Jild: 04, Nashr:03 | Mart - 2024 ISSN: 2181-2624.
- 9.Mamarasulov.S.R va boshqalar Kanallarni ishonchlili ishlash shartlari Pedagogika fanlari va o'qitish metodlari. – 2023. – T. 3. – Yo‘q. 28. – 77-82-betlar.
10. Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma’lumotlaridan foydalanilgan.
11. Oqsuv irrigatsiya tizimi boshqarmasi ma’lumotlaridan foydalanilgan.

Internet resurslari:

[www. ziyonet. uz.](http://www.ziyonet.uz)

[www. edu. uz.](http://www.edu.uz)

www.ziyo.net